


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2021- yil yanvar-sentabr (dastlabki ma'lumot)

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi yanvar-sentabr oylarida 2 355,5 ming so'mni tashkil etdi va buni viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Payariq tumanida 3 327,5 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 141,3 %), Samarqand shaharda 2 910,9 ming so'mni (123,6 %), Jomboy tumanida 2 361,4 ming so'mni (100,3 %) tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan past ko'rsatkich Paxtachi tumanida 1 792,0 ming so'mni (76,1 %), Oqdaryo tumanida 1 812,7 ming so'mni (77,0 %), Ishtixon tumanida 1 817,7 ming so'mni (77,2 %), Kattaqo'rg'on tumanida 1 827,5 ming so'mni (77,6 %) tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, %da)




Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2020- yil yanvar- sentabr	2021- yil yanvar- sentabr	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	2082,3	2355,5	113,1
Samarqand sh.	2565,3	2910,3	113,5
Kattaqo'rg'on sh.	1868,7	2071,2	110,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1669,1	1812,7	108,6
Bulung'ur	1762,2	1871,0	106,2
Jomboy	2253,6	2361,1	104,8
Ishtixon	1667,2	1817,7	109,0
Kattaqo'rg'on	1741,7	1827,5	104,9
Qo'shrabot	1765,7	1852,3	104,9
Narpay	1717,6	2101,5	122,4
Payariq	1684,0	3327,5	197,6
Pastdarg'om	1805,6	1901,7	105,3
Paxtachi	1602,6	1792,0	111,8
Samarqand	1742,7	2022,2	116,0
Nurobod	1878,5	2100,6	111,8
Urgut	1951,7	2082,5	106,7
Toyloq	1827,9	1982,9	108,5


Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da)



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr, viloyat ko'satkichiga nisbatan)



➤ **Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 717,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 4,4 % ga kamaygan.



Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 858,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 7,4 % ga kamaygan.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 935,6 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,8 % ga oshdi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 387,8 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 25,8 % ga oshdi.

➤ **Axborot va aloqa** sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 395,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 44,3 % ga oshdi.



➤ **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5 381,2 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 11,6 % ga oshdi.

➤ **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 087,7 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 11,5 % ga oshdi.




➤ **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 374,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 38,8 % ga oshdi.

Boshqa faoliyat turlari sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 497,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 12,7 % ga oshdi.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'm)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, ga %.

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Samarqand viloyati bo'yicha 2021 - yil yanvar -sentabr oylarida 2020 - yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati axborot va aloqa sohasida **44,3 %**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida **38,8 %**, tashish va saqlash sohasida **25,8 %**, Moliya va sug'urta sohasida **11,6 %**, ta'lim sohasida **11,5 %**, savdo sohasida **5,8 %** kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021 - yil yanvar-sentabr oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqi, ming so'mda





Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining 25.12.2020- yildagi Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni, 17.08.2021 yildagi PQ-6279-sonli Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1 sentabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 822 000 so'mni tashkil etadi.



Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
(66) 235-72-35